6-BO‘LIM.
TARBIYA SOHASIDA AMALIYOT VA INNOVATSIYALAR

EKOLOGIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK HUQUQIY TARG‘IBOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Xudoyqulova Dilorom Xolovna
Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani adliya bo‘limi xodimi

Annotatsiya. Maqolada ekologik muhitni muhofaza qilish, aholining ekologik ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ekologik huquqiy targ‘ibotning ahamiyati hamda atrof-muhitni asrashga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi, ekologik barqarorlikni ta’minlash, chiqindilarni boshqarish va yashil hududlarni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Maqolada ekologik muammolarni bartaraf etishda jamoatchilik faolligi, ekologik huquqiy targ‘ibot va aholining atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatini shakllantirish muhim omil sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: ekologik muhit, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ong, ekologik huquqiy targ‘ibot, huquqiy madaniyat, ekologik barqarorlik, “Yashil makon”, yashil hududlar, chiqindilarni boshqarish, jamoatchilik ekologik nazorati.

Аннотация. В статье освещаются вопросы охраны окружающей среды, повышения экологического сознания и правовой культуры населения, значения экологической правовой пропаганды, а также приоритетные направления государственной политики в сфере охраны природы. Рассматривается содержание и значение реализуемого в Узбекистане общенационального проекта “Зелёное пространство”, а также меры, направленные на обеспечение экологической устойчивости, совершенствование системы управления отходами и расширение зелёных зон. Обосновывается важная роль общественной активности, экологической правовой пропаганды и формирования ответственного отношения населения к окружающей среде в решении экологических проблем.

Ключевые слова: экологическая среда, охрана окружающей среды, экологическое сознание, экологическая правовая

пропаганда, правовая культура, экологическая устойчивость, “Зелёное пространство”, зелёные зоны, управление отходами, общественный экологический контроль.

Abstract. The article highlights the issues of environmental protection, increasing environmental awareness and legal culture among the population, the importance of environmental legal advocacy, and the priority directions of state policy in the field of environmental protection. It examines the content and significance of the nationwide “Green Space” project implemented in Uzbekistan, as well as measures aimed at ensuring environmental sustainability, improving waste management, and expanding green areas. The article substantiates the importance of public participation, environmental legal advocacy, and the formation of a responsible attitude toward the environment in addressing environmental problems.

Keywords: environmental protection, environmental awareness, environmental legal advocacy, legal culture, environmental sustainability, “Green Space”, green areas, waste management, public environmental control, environmental policy.

Bugungi kunda ekologik muhitni muhofaza qilish, ona tabiatni asrash, turli ekologik muammolarni bartaraf etish dunyo miqyosidagi global masalalardan biriga aylangani sir emas. Atrof-muhit obodligini saqlash, tabiatni muhofaza etishda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar mas’uliyatini oshirish juda muhim vazifa sanaladi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 49-moddasida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, deb belgilab qo‘yilgan.

Bu borada, ayniqsa, adliya organlari tomonidan olib borilayotgan ekologik huquqiy targ‘ibot ishlari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ekologik vaziyatning barqaror bo‘lishini ta’minlash uchun qabul qilingan yangi qonun hujjatlarining o‘z vaqtida bajarilishi, ijrochilarga tarqatish hamda qonunlar bilan qabul qilingan afzalliklarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga doimiy ravishda tushuntirishning samarali mexanizmlari belgilab olingan.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholashning asosiy maqsadi - aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir huquqiy targ‘ibot tadbirlarining samaradorligini oshirish, bu borada davlat organlari va tashkilotlarning mas’uliyatini kuchaytirish hamda huquqiy targ‘ibot

tadbirlarini tashkil qilish bo‘yicha yangi innovatsion uslublarni joriy qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va amalda tatbiq etishdan iborat.

Aholining ekologik ongini rivojlantirishda ekologik huquqiy targ‘ibot muhim o‘rin tutadi. Ushbu targ‘ibot va tashviqot ishlari orqali adliya organlari aholida atrof-muhitni asrash va qonunlarni hurmat qilish tuyg‘usini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga xizmat etuvchi har bir ishimiz kelajakka qo‘yilgan haqiqiy sarmoyadir.

Ma’lumki, Toshkent shahri ham og‘ir ekologik vaziyatda bo‘lgan shaharlar sirasiga kiradi. Yevropada uzoq vaqtdan buyon shaharlarni ekologik toza tutishga intilishadi, chiqindilarni qayta ishlash muammosiga jiddiy yondashishadi, muqobil energiya manbalari izlanadi, bu haqda filmlar suratga olinadi, biror muammo paydo bo‘lsa, matbuot va jamoatchilik darrov bong uradi, bir so‘z bilan aytganda, haqiqiy ekologik targ‘ibot olib boriladi.

Bizda ham bu borada bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan, bayramlar oldidan “umumxalq hasharlari” uyushtiriladi yoki “Avtomobilsiz bir ish kuni” kabi tadbirlar yo‘lga qo‘yilmoqda, lekin, albatta, bu hali yetarli emas. Ekologik muammoni hal etishda, birinchi navbatda, inson ongida toza hayot, insonlarning atrof-muhitni asrashga doir munosabatini o‘zgartirish lozim. Mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash bugungi kunda tashqi va iqtisodiy siyosat kabi asosiy masalalardan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bu borada qator farmon va qarorlar qabul qilingani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunga birgina “Yashil makon” loyihasi yaqqol misol bo‘la oladi.

Davlatimiz rahbarining PF-199-sonli farmonida 2025-yilda Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Atrof-muhitni himoya qilish” va “Yashil” iqtisodiyot umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 588 gektar “yashil bog‘lar”, 662 gektar “yashil jamoat parklari”, Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 km masofada “yashil belbog‘lar” barpo etish rejalashtirildi va fuqarolarning ushbu loyihaga faol qatnashishi targ‘ib qilindi. “Yashil makon” loyihasiga ajratiladigan mablag‘ning kamida yarmi jamoatchilik fikri asosida shakllangan loyihalarga yo‘naltiriladi. Ekologik huquqiy targ‘ibot maqsadida o‘tkazilayotgan “Eng yashil mahalla” tanlovi aholi faolligiga qaratilgan. Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda har yili “Eng yashil mahalla” tanlovini o‘tkazish va tanlov natijalari bo‘yicha g‘olib bo‘lgan 14 ta mahallani ekologiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan daraxtlar ekish va sug‘orish, “Yashil jamoat

parki”ni yaratish uchun jami 500 million so‘m mukofot bilan taqdirlash, o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga xizmatda foydalanish uchun 1 tadan elektromobil topshirish choralarini ko‘rish nazarda tutilgan. Daraxt ko‘chatlarini ekish, hududlarni ko‘kalamzorlashtirishda aholi manfaatdorligini kuchaytirish maqsadida avtomobil, temir yo‘l, daryo va kanallar bo‘ylari, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari yer uchastkalarining foydalanilmayotgan qismida (o‘rmon fondi yerlari bundan mustasno) “yashil bog‘lar” barpo etish belgilangan. Ushbu yerlar egalari, foydalanuvchilari hamda tashabbuskor jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuziladigan ikki tomonlama shartnoma asosida 10 yilgacha yo‘l bo‘yida daraxt ko‘chatlarini kamida 5 qatordan ekish, parvarish qilingan daraxtlarning yiliga 30 foizidan oshmagan qismidan sanoat va qurilish maqsadida foydalanish, yer uchastkalarini respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga “Yashil bog‘” barpo etish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida berish kabi yangi imkoniyatlar berildi.

2023-yil oxirigacha har bir davlat tashkiloti va hokimliklar o‘z bog‘larini yaratishi, 2024-yil 1-yanvardan boshlab uy sharoitida daraxt va buta ko‘chatlarini yetishtirish faoliyati bilan shug‘ullangan shaxslar o‘zini-o‘zi band qilgan hisoblanishi hamda “Yashil to‘lov” platformasi jismoniy va yuridik shaxslarning arizalari bo‘yicha ko‘chat va butalar ekishni tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida elektron to‘lov tizimlari foydalanuvchilari va boshqa iste’molchilarning ixtiyoriy xayriya badallariga xizmat ko‘rsatish uchun joriy etilishi belgilandi.

Prezidentning 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasi “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2030-yilgacha mo‘ljallangan “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturida issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 foiz oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish, sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish kabi vazifalar belgilangan. Bundan tashqari, yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan

ortiqqa kengaytirish, respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqqa yetkazish, hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish kabi maqsad va vazifalar ana shular jumlasidandir. “Yashil makon” milliy loyihasi doirasida Toshkent shahri hududida eksperiment tariqasida daraxt pasporti joriy etiladi va tajriba natijalariga ko‘ra, respublikaning boshqa hududlarida daraxt pasportlarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Prezidentning “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2023-yil 31-maydagi 81-son) farmoniga muvofiq, 2023-yil 1-iyuldan boshlab O‘zbekiston Respublikasida «Jamoatchilik ekologiya nazoratchisi» tizimi joriy qilindi hamda Vazirlik, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, hokimliklar tomonidan xalqaro tajriba asosida respublikaning barcha hududlarini ekologik baholash bo‘yicha indikatorlar asosida “eco-indicator.uz” reytingi shakllantirildi va har bir hududning ekologik pasporti e’lon qilinadi hamda Milliy tabiiy meros obyektlari ro‘yxati joriy etilmoqda.

Shuningdek, “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF-5-son, 04.01.2024-y.) qabul qilindi. Farmon bilan avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati qoidalari buzilganligini foto va video qayd etish vositalarini o‘rnatgan tadbirkorlarga ekologik huquqbuzarliklarni ham qayd etish va Davlat ekologik nazorat inspeksiyasiga xabar berish huquqi berildi. Bunda tadbirkor jarima sifatida undirilgan mablag‘ning 20 foizi miqdorida pul bilan rag‘batlantirilishi ham belgilangan.

Adliya organlari tomonidan aholining ekologik huquqiy ongini rivojlantirishda aholi o‘rtasida so‘rovlar o‘tkaziladi. So‘rovlar natijalari bo‘yicha mamlakatimizda o‘tkazilayotgan tanlovlar haqida aholining xabardorlik darajasi hali past ekanligi aniqlandi. Vaholanki, har yili eng uzoq (kamida 10 yil) va sadoqatli xizmat ko‘rsatgan sanitar tozalash korxonalari xodimlari uchun “Tabiat uyg‘unligi himoyachisi” tanlovi o‘tkaziladi. Adliya organlari tomonidan o‘tkazilgan ekologik huquqiy targ‘ibot natijasida aholi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar asosida atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishning qator usullari taklif etilgan. AI-80 benzinidan foydalanishni kamaytirish, katta shaharlarda og‘irligi 3,5 va 12 tonnadan ortiq yuk avtomashinalarining kunning eng yuqori vaqtida (ertalab soat 07:00 dan 10:00 gacha va 17:00 dan 20:00 gacha) harakatlanishini cheklash, elektr transport vositalariga o‘tish uchun turli imtiyozlar berish, xorijiy tajribaga asoslanib (Xitoy tajribasi) yo‘l tirbandligini kamaytirish uchun “toq va juft” kunlarni boshqarish qoidasini joriy etish, shaharning muhim ko‘chalarida avtomashinalar-

siz zonalar tashkil etish, jamoat transportini to‘liq elektr, gaz ballonli yoqilg‘iga o‘tkazish, sun’iy suv havzalarini qurish, tuproq zarralari ko‘chishining oldini olish uchun “Yashil belbog‘”lar barpo etish, havo sifatini e’lon qilib boradigan tablo va monitorlar o‘rnatish kabi takliflar ana shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, ekologik huquqiy targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazishdan atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash va aholi o‘rtasida atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsad etilgan. Shunday ekan, har qanday sog‘lom inson ongli ravishda atrof-muhitga befarq bo‘lishi mumkin emas. Qolaversa, bu bir yoki ikki shaxs, idoraning emas, balki keng jamoatchilik ishi va vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi «2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi «Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirishga oid farmon va qarorlari.

6. O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni.

7. O‘zbekiston Respublikasining «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi Qonuni.